

Qoraqalpoqlarning joylashuvi va bo'linishiga oid ma'lumotlar tahlili

Sohiba Boysariyeva

Magistr

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqalpoqlarning Orolbo'yi va Sirdaryo orti sahrolaridagi qadimiy joylashuvi va ularning tarixiy rivojlanishi yoritiladi. Asosan, qoraqalpoqlar o'z etnik guruh sifatida qanday shakllanganligi, ko'chmanchilik davrida Volga, Ural, va Sirdaryo hududlarida qanday joylashgani, va turli tarixiy bosqinchilik davrlarida ular qanday o'zgarishlar kechirgani haqida ma'lumot beriladi. Maqolada qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi bilan aloqalari, xo'jalik faoliyatlari, jumladan dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, va o'zaro iqtisodiy aloqalari haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qoraqalpoqlar, ko'chmanchilik, Orolbo'yi, Sirdaryo, Rossiya imperiyasi, chorvachilik, baliqchilik, qoraqalpoq tarixi

Qoraqalpoqlar Orolbo'yi va Sirdaryo orti sahrolarining qadimgi aholisi, qoraqalpoqlar haqida X-XI asrlar manbalarida "qoraqalpoq" (qora bo'rkli) nomi bilan tilga olingan. Rashididdin asarida "qavmi kulahi siyah" nomi bilan qayd etilgan. Chingizxon bosqini oqibatida qoraqalpoqlar G'arbga-Volga bo'ylariga ko'chishga majbur bo'lgan.

Qoraqalpoqlar haqida, ularning Sirdaryo bo'ylariga kelib qolganliklari to'g'risida 1578 va 1582 yillardan boshlab ma'lumotlar mavjud. 1598 yilda boshqa bir manbada ularning nomi eslatiladi. Abdullaxon II tomonidan Sig'noqdagi muqaddas Ziyovuddin qabri uchun ajratilgan vaqf guvohnomasida o'sha atrofda yashaydigan ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi va o'troq aholi guruhlari nomlari sanab o'tiladi va ana shu urug'lar qatorida qoraqalpoq nomi ham tilga olingan.

Keyingi davrlar manbalari ma'lumotlariga qaraganda XVI asrga kelib qoraqalpoqlar Volga, Ural, Elba daryolari vohalari va Buxoro xonligi hududlarida yashagan. XVII asrning oxiri XVIII asrning o'rtalarigacha qoraqalpoqlar Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi bo'ylariga yashab, siyosiy va iqtisodiy jihatdan qozoq xonlariga qaram bo'lgan. Qozoq xoni Tavakkal (Tauka) (1680-1709) davrida qoraqalpoqlar hukmdori uning o'g'illaridan biri bo'lgan. 1694 yilga doir rus hujjatlari ma'lumotlariga qaraganda, rus qoraqalpoqlarning xo'jaligini Taburchak sulton bo'lgan. 1722 yilda qoraqalpoqlar qozoqlarning kichik juzi xoni

Abulxayrxon hukmdorligi ostida bo'lib, u o'z hukmronligini mahalliy hukmdorlar – biy, boy va ruhoniylar orqali amalga oshirgan.

1721 yilda ufalik dvoryan Deshit Rey Pemofevich Verining qoraqalpoqlar yurtiga jo'natilgan edi. Uning bu tashrifidan maqsad, qoraqalpoqlar va ularning xoni Eshmuhammad bilan Rossiyadan qul qilingan odamlarni qaytarish va qoraqalpoqlarning Rosiyaga sodiqlik bilan xizmat qilish masalalarini kelishib olish edi.

1722 yili Eshmuhammad rus imperatorining xohlagan farmonini bajarishga tayyor ekanligi haqidagi yorliqni Pyotr I ga jo'natdi. Qoraqalpoqlarning keyingi taqdiriga XVIII asrning birinchi yarmida boshlangan jung'orlar bosqiniga bog'liq bo'ldi. Ularning G'arbg'a qarab yurishi qozoq xoni Tavakkalning zafarlari to'xtatdi. XVIII asr boshlarida qozoqlar va jung'orlar o'rtasidagi chegara Irtishidan Balxashgacha va Janubiy-g'arb tomonda Chu daryosining o'rta oqimigacha cho'zilgan edi. Ammo XVIII asrning keyingi o'n yilliklarida jung'orlar o'zlarining chegaralarini yana g'arb tomonga surishga harakat qildilar. Bu safar qozoqlar juzlar (orasida) o'rtasidagi o'zaro urushlar oqibatida ulaning zarbalarini qaytara olmadilar.

1723 yili qozoq xonlari Kunteychji Sevan Robadan rahbarligidagi jung'or qo'shinlarining hujumlari boshlanib ketdi. Qozoqlar uchun "Ulug' halokat yo'llari" deb nomlangan bu baxtsizlik qozoq xalqining ijodi dostonlarida aks etgan va hozirga qadar ularning xotirasidan o'chmagan dahshatli voqealar bo'lib qoldi. Ularga qarshi kurashish uchun kuchsiz bo'lgan qozoq ovullari tumtaraqay qochdilar. Talangan va qaqshatilgan qozoqlar uch yo'nalishda: kichik juz-g'arbg'a, Xivaga hamda Yopiq va Elba daryosiga, O'rta Juz O'rta osiyoning Markaziy viloyatlari Buxoro va Samarqandga; katta Juz esa jung'orlar hukmronligini tan olib ular qo'l ostida qoldi.

Qoraqalpoqlarning bir qismi qozoqlar bilan birga Sirdaryoning yuqori oqimi tomon Toshkentga va undan Janubiy G'arb tomonga, asosiy qiyinchiliklari esa daryoning quyi oqimi va orol dengizi bo'ylariga qo'chishga majbur bo'ldi. Shu tariqa qoraqalpoqlar Janubiy va Shimoliyga bo'lindilar, birinchilardan jung'orlarga siyosiy tobe keyingilari 1743 va qisman 1762 yilgacha Kichik Juz qozoqlariga vassal bo'lib qoldilar.

Jung'orlar hujumi bu xalqlarning iqtisodiy va siyosiy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatdi. XVIII asr boshlarida qoraqalpoqlarning birlashish sari harakatlarini yo'qqa chiqardi. Yuzaga kelgan bu vaziyat qoraqalpoq oqsoqollarini Rossiya bilan aloqalarini tiklash to'g'risidagi xulosaga olib keldi. Jung'orlar hujumlari bosilgan davrda bu aloqalar tiklana boshlandi.

Rossiya imperiyasining hukmdorlari o'z navbatida qoraqalpoqlarning o'z tobeliklariga o'tishidan manfaatdor edi. Ular Pyotr I ning "Sharqqa qarab siljish to'g'risida" gi rejalarini unutmagan edilar. Orenburg ekspeditsiyasining boshlig'i I.Kirillov qoraqalpoqlarning Rossiya tomonga ag'darishning iqtisodiy tomonlarini qayd qilib, qoraqalpoqlar paxta va ko'p miqdorda bug'doy yetishtiradilar, shuningdek, ularda arpa, tariq va javdar ham mo'l. Bu mahsulotlarni ular qirg'iz-qaysoqlar bilan qo'y va boshqa mollarga almashtiradilar, hamda savdogarlar sotadilar. Ular orol ko'li va Sirdaryoga yaqin yerlarda yashaydilar, bu yerlar rus savdogarlari uchun qo'nalg'a joyi bo'ladi, - deb yozgan edi.

1734 yil boshida qozoq va qoraqalpoq vakillari Peterburgda imperator saroyida bo'lgan edilar. Rossiyaning o'z tobeligida olish haqidagi yorliq qozoq xoni Abduxayrga va qoraqalpoqlar xoni G'oyibga jo'natilgan edi. Qoraqalpoqlarning Rossiya tarkibiga kirishi Eron shohi Nodirshohning yeriga hujum qilishi oldini oldi, bu narsa o'z navbatida qoraqalpoqlarga jung'orlar tomonidan vayron etilgan xo'jaliklarini tiklashga yordam berdi.

1741 yilda Rossiya imperiyasi taxtiga o'tirgan Elizavetta Petrovna qoraqalpoqlarning tobeligi haqidagi qasamyodini yana bir marta tashkil etilishi masalasini ko'rdi. 1742 yilning 4 sentyabarida Poruchik Gladishchev qoraqalpoq oqsoqollarini qasamyod olib kelish uchun jo'natiladi. Qasamyod yozuvchilari Gladshchevga qasamyod uchun o'z vakillarini yuborishga tayyor ekanliklarini ma'lum qildilar. Oqsoqollar qoraqalpoqlarning qozoq xoni ta'sirlaridan chiqishga tayyor ekanliklarini va bevosita Rossiya tobeligiga o'tish haqidagi maktublarini elchilarga topshirdilar.

1734 yilning avgustida qoraqalpoqlarning Mamatbiy rahbarligidagi (delegatsiyasi) vakilligining imperiatrasiya saroyida qabul marosimi o'tkaziladi. Ularga Rossiya homiyliги to'g'risidagi yorliq topshiriladi. Qoraqalpoqlarning Rossiya tobeligiga o'tishi, qul qilingan ruslarning qaytarilishi, podsho Rossiyasiga yasoq to'lanishi qozoq xonlariga ma'qul tushadi. Hali elchilar uylariga qaytmadanoq, Abdulxayr "Quyiy" qoraqalpoqlarni taladi va tor-mor qildi. Podsho Rossiyasi esa qoraqalpoqlarni himoya qilishni tashkil etolmadi yoki ularni himoya qilishdan o'zini tortdi.

Qoraqalpoqlarning Abdulxayr tomonidan tor-mor etilishi, ularning Janadaryo tomon siljishini tezlashtirdi, bu harakat XVIII asrning boshida boshlangan edi. 1746-1747 yillarning qismida ular O'rta juz sultoni Oblo hujumiga duchor bo'ldilar, qozoq xonlari va sultonlarining siquvi "quyiy" qoraqalpoqlarning, "shimoliy" qoraqalpoqlariga ko'chishga majbur qildi. Ularda jung'orlar ta'siri kuchli bo'lishga qaramay, "quyiy" qora

qoraqalpoqlarning "shimol" qoraqalpoqlariga ko'chishiga majbur qildi, ularda jung'orlar ta'siri (ularning ko'chishiga majbur qildi) kuchli bo'lishga qaramay ko'pchiligi junubiy g'arb tomonga siljiy boshladi va Xiva xonlari chegaralariga yaqinlashib bordi. Ular asosan Quvondaryo va Janadaryo oralig'idagi erlar, Amudaryo deltasining sharqiy qismini mo'ljallab harakat qildilar.

1778 yili O'rta juz sultoni Baroq, Sulton Botir ko'magi va uning atrofida gilarining yordami bilan Abdulxayrni o'ldirdi. Abdulxayr o'g'li Nuralixon bo'ldi, uni podsho Rossiyasi qo'llab-quvvatlar edi, ammo uni Kichik Juz tul tan olmadi. Shahd urug'ining (bu urug'ning mavqei baland edi) aslzodalari Botirni xon deb e'lon qildilar. Oqibatda Kichik Juz ikki xonlikka bo'linib ketdi. Abdulxayrning ikkinchi o'g'li Yorali, Sirdaryoning quyi oqimi ko'chmanchilarining sardori Nuralidan mutlaqo mustaqil edi.

Kichik Juzda yuzaga kelgan bunday holat qoraqalpoqlar keyingi taqdiriga ham ta'sir qildi. Sulton Botir va Yorali, Nuralidan ajralmagan holda Rossiya tobeligini qabul qildilar. Qoraqalpoqlar bilan to'qnashuvlar XVIII asrning 30 yillarida yana avj oldi. 1762 yili Kichik Juz sardori bo'lgan qozoq sultoni Yorali qoraqalpoqlari ommaviy tarzda talay boshladi, Sirdaryoda qolganlarni Jonidaryo va Orol bo'yiga ko'chishga majbur qildi. Janidaryo (Yangidaryo) bo'ylarini o'zlashtirgan qoraqalpoqlar mehnat mashaqqatlari bilan birga, qozoq xonalari bilan ham mutassil kurashlar olib borganlar.

Janidaryo bo'ylariga kelib yashagan davr qoraqalpoqlar tarixining muhim sahifalari bo'lib hisoblanadi. Bu erdagi qo'riq va botqoq yerlarni o'zlashtirish juda mashaqqatli bo'lish birga, ular ma'lum darajada siyosiy sostial-iqtisodiy jihatdan ayrim vaqtlarda ozodlikka ham erishganlar.

Janidaryo (Yangidaryo)da qoraqalpoqlar bevosita Orolbo'yi o'zbeklari orollik qoraqalpoqlar bilan birga bo'lmaganlar. Ular ham XVIII asrda ham ular bilan aloqada bo'lganlar. 1740 yilga kelib qoraqalpoqlarning anchagina qismi ular bilan qo'shib ketganlar, bu aralashishi faqat siyosiy tomondan emas, balki etnik jihatdan bir-birliri bilan qorishib ketganlar.

Ular orollik qoraqalpoqlar bilan ittifoqlashib o'z mustaqiligi uchun nafaqat qozoq xonlari va sultonlari, balki Xiva xonlariga ham qarshi kurashlar olib borganlar. Qoraqalpoq yerlari XVIII – XIX asrlarda Quvondaryo, Janidaryo (Yangidaryo) havzasi va Amudaryoning Quyi oqimini ham o'z ichiga qamrab olgan. Xususan Quvondaryo va Janadaryo oralig'ida

aholi zich yashagan. Shunday qilib, XVIII asrning ikkinchi yarmida qoraqalpoqlarning joylashuvi butun Janidaryo vohasini egallagan.

Bu davrda qoraqalpoqlar boylar maslahati (kengash)lari tomonidan boshqarilgan har bir urug' uyushmasiga biylar (yirik er va mol egalari) boshliq qilib qo'yilgan. Bir necha urug' va qabilalar uyushmasi (aris) ga o'n to'rt urug'ga mang'it urug'ining biyi Urunboy bosh bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi va rivoyatlarning guvohlik berishicha, bu davrda urug' va qabilalar o'rtasida qo'ng'irotlarning aris biyi Esengeldi biyning ta'siri kuchli bo'lgan, Urug'lar uyushmasidagi biylarning hammasiga o'sha hukmronlik qilgan. Ammo, tashqi dushmanlarga qarshi kurashishi uchun butun qoraqalpoq xalqining birinchi kerak edi.

Urug'-qabilachilik tizimining saqlab qolinganligi, bir jihatdan mol-mulkning (markazlashuvi) to'planishiga ko'maklashsa ham bu davrda qoraqalpoqlarda patriarxal – feodal munosabatlari davom etar edi. Bosqinchilikning doimiy xavfi mavjudligi qoraqalpoqarning jam bo'lib yashashlari zaruratini hosil qiladi. Ayrim holarda butun urug'-aymoqlar bir bo'lib yashaganlar. Har bir ovul o'z qo'rg'oniga ega bo'lgan, bu qo'rg'on paxsa devor bilan o'rab olingan. Kuz va qish faslida ovul jam bo'lib shu qo'rg'onida yashashgan, chunki asosan ana shu faslda bosqinlar bo'lgan. Odatda bunday qo'rg'onlar ovul yerlarining yonida yoki o'rtasida bo'lgan.

XVIII asrning 80 yillarga daxldor manbalarda qoraqalpoqlarning ajoyib dehqonlar ekanligi qayd etilgan. Bunda ularning xo'jaligida chorvachilik asosiy o'ringa ega, chorvachilik xo'jaliklarida esa qoramolchilik ustivor ahamiyatga ega bo'lgan.

Quvondaryoning quyi oqimida va Orol bo'yi bo'yida yashovchi qoraqalpoqlar baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Bular muytan, qoldovul, omamayl, qiyot va urug' vakillari edi. Qoraqalpoqlarning xo'jalik hayotida ovchilik ham muhim rol o'ynagan.

O'zaro urushlar mutassil davom etishiga qaramay qozoqlar bilan qoraqalpoqlar iqtisodiy aloqalarda bo'lganlar, qozoqlar qoraqalpoqlardan bug'doy sotib olib ularga mol sotganlar, qoraqalpoqlar esa Xiva xonlig bozorlarida qoramol sotganlar. Janidaryo va Quvondaryo qoraqalpoqlari Xiva xonligi savdogarlari voistachiligida Rossiya va Buxoro tovarlarini sotib olganlar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qoraqalpoqlarni o'troqlashuvi natijasida ularda hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlana boshladi. Qoraqalpoqlar uzoq vaqt davomida turli davlatlar tarkibida vassal sifatida yashashga majbur bo'lib, siyosiy tarixining katta qismi aynan doimiy ko'chmanchilik bilan bog'liq tarzda kechdi. Bu holat ularning moddiy va

ma'naviy hayotida aks etib, hozirgacha ko'chmanchilik elementlari xalq urf-odatlarida saqlanib qolganligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. СПб., 1865.
2. Жданко Т. А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. (Родо-племенная структура и расселение в XIX - начале XX века). М.,1950.
3. Зевелев А.И. Историография Советского Туркестана. Историография и источники по истории гражданской войны в Туркестане. Т., 1968.
4. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX әсирдин екинши ярымынан XXI әсирге шекем. Нөкис: Қарақалпақстан, 2003. 556 с.
5. Толстова С. П. Жданко Т.А. Абрамзона С. М. Кислякова Н. А. Народы Средней Азии и Казахстана. I часть. М., 1962.